

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TABIIY FANLAR FAKULTETI

Kimyo yo'nalishi

2 kurs 013-60 -guruh talabasi

Xoliqova Gulbahorning

“Madaniyatshunoslik” fanidan tayyorlagan

REFERATI

Mavzu: Sharq uyg'onish davri madaniyati.

Bajardi: Xoliqova Gulnavor

Qabul qildi: Karimov Bahrom

Qarshi-2015 y.

Qadimgi sharqda insoniyat madaniy taraqqiyotining uchoqlaridan Messopatamiya (ikki daryo oralig'idagi Shumer, Akkad va Bobil davlatlari madaniyati), Misr, Suriya, Finikiya, Falastin, Ossuriya, Urartu, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston va Xitoy madaniyatlari vujudga keladi.

Qadimgi Sharqda kishilar (neolit davrining oxiriga kelib) ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Birmuncha keyinroq botqoq yerlarni quritib dastlab motiga dehqonchiligini, so'ngra omoch dehqonchiligini rivojlantiradilar. Dehqonchilikning rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga turtki beruvchi yangidan yangi ehtiyojlarni, mehnat qurollarini takomillashtirishni, sun'iy sug'orish sistemalarini (shahobchalarini) barpo etishning, birgalikda mehnat qilish va yashash shart-sharoitlarini yaxshilash ehtiyojlarini vujudga keltiradi. Mesopatamiya bilan chegaradosh mamlakatlar-Urartu, Eron, Kichik Osiyo va Suriya bilan savdo sotiq ishlarini olib boradilar. Kemasozlik ancha taraqqiy etadi. Dajla va Frot daryolari savdo-sotiqning asosiy yo'lga aylanadi. Ikkinchi tomondan juda ko'plab buyumlarni: bochka, quvur, quti, pech, o'choq, chiroq kabi buyumlarni ham loydan yasay boshlaydilar. Bu esa kulolchilikning rivojlanishi va kulolchilik charxining paydo bo'lishiga olib keladi.

Mesopatamiyaning qadimgi aholisi etnik jihatdan bir xil bo'lmagan. Tarixiy manbaalarda ko'rsatilishicha, Frot va Dajla daryolari oralig'iga Sharqdan shumeriylar, G'arb va Shimoli G'arbdan, ya'ni Arabiston va Shimoliy Afrikadan somiy (semit) qabilari kirib kelib o'rnamadilar, ular Akkad shahrini barpo etadilar va o'zlarini akkadlar deb atay boshlaydilar.

Lingvistikaga ko'ra shumeriylarning tillari miloddan avvalgi II ming yillardayoq muomaladan chiqib ketadi, ya'ni boshqa kuchliroq etnoslarning tillari ta'sirida o'lik tilga aylanadi. Lekin Shumer tilidagi geografik nomlar va diniy e'tiqodlarga oid atamalar akkadliklar tomonidan saqlab qolinadi.

Ikki daryo oralig'i xalqlari madaniyatining Shumer-Bobil madaniyati deb atalishiga sabab, madaniyatining ko'pgina sohalarda diniy e'tiqodda, yozuvda, adabiyot va san'atda, fan va boshqa sohalarda doimo shumeriylarning birinchi bo'lib kelganligi hamda Bobil davlati (miloddan avvalgi XIX asrdan) yuksalib ikki daryo oralig'ini yagona davlatga birlashtirib yuksak madaniyatga erishganligidir.

Qadimgi shumeriylarning madaniyatining qo'lga kiritgan yutuqlaridan biri – yozuvning ixtiro qilinishidir. Olti yuzga yaqin belgilardan iborat bo'lgan shumeriylarning yozuvi miloddan avvalgi IV ming yillikdayoq paydo bo'lgan. Shumer yozuvi dastlab suratli (piktografik) yozuv shaklida bo'lgan. So'zlar suratlar orqali ifodalangan. Ayrim paytda bir xil surat bir necha ma'nolarni anglatgan. Bir suratning ko'p ma'noligi katta qiyinchiliklar tug'dirgan. Yozilgan so'zlarni o'qish nihoyatda murakkablasha borgan. Bu esa yozuvni soddalashtirishni talab qilgan. Vaqtlar o'tishi bilan yozuvning asosi hisoblangan tasvirlar yo'qola borib, so'zning tovush xususiyatlarini yozma belgilar orqali ifoda qilish vujudga keladi. Natijada biror so'zni ifodalovchi suratlarining harakterli qismigina chizila borgan.

Taxminan ming yillar o'tgandan so'ng suratlarining ayrim harakterli tomonlari tikkasiga, qiyalama pona shakliga kela boshlagan, yumoloq chiziqlar tez yozishda beixtiyor to'g'rilana

boshlagan. Masalan, «quyosh» soʻzini anglatuvchi doira rombga uxshab yozila borgan va pona shaklini olgan.

Yozuv belgilari hali qotib ulgurmagan loy lavhalarga uchli, ponasimon mixlar yordamida oʻyib yozilgan. (shu boisdan mixxat ham deb yuritiladi). Soʻngra maxsus humdonlarda pishirilgan. Sopol lavhalar ibodatxonalar va saroylarning devorlari hamda ustunlariga maxkamlangan.



XIX asr oxirida Amerikalik arxeologlar qadimgi shumeriylar shahri Nipurda qazishma ishlari olib boradi va bu yerdagi 62 ta xonalarga joylashgan bir necha ming sopol lavhalarni izlab topadilar. XX asr boshida esa nemis arxeologlari qadimgi Shurrupakda qazishma ishlarini olib boradilar va qadimgi shumer kutubxonasini izlab topadilar. Mixxat topilmalari turli sohani qamrab olgan sopol lavhalardan iborat boʻlgan.

Uruk shahridan topilgan kutubxona xarobalari tagidan tol novdasidan toʻqilgan savatlarga joylashtirilgan koʻplab sopol lavhalarga bitilgan mixxat yozuvlari qazib olingan.

XX asrning 20 yillarda ingliz arxeologi L.Vulli boshchiligidagi ekspeditsiya 12 yil mobaynida qadimgi Ur shahri harobalarini ochish bilan shugʻullanadi. Saroylar, qasrlar, ibodatxonalar va podsholarning daxmalari qoldiqlari ochib oʻrganiladi. Natijada 20 mingtacha mixxat yozilgan taxtachalar, koʻplab qimmatbaho zargarlik va uy – roʻzqʻor buyumlari hamda oltin idishlar topiladi. Ingliz olimining Ur shahri xarobalarini oʻrganishi sanʼat taraqqiyotining beshigi qadimgi Yunoniston, deb xulosa chiqargan koʻpgina olimlarning fikrini chippakka chiqaradi. Ur xarobalaridan topilgan boʻrtma suratlar, haykalchalar meʼmoriy yodgorliklar qoldiqlari haqiqiy sanʼatning yuksalishi dastlab qadimgi Shumerda vujudga kelganligini isbotlab berdi.

Sopol lavhalarga tushirilgan yozuvlar orqali bizga ko'pgina turli xil dostonlar, qonunlar majmualari, shu jumladan, Xammurapining 247 banddan iborat qonunlar (kodeks) to'plami yetib kelgan.

Bobil podshosi Xammurapi (mil. avv. 1792-1750 yillarda podsholik qilgan) qonunlari majmuasi ijtimoiy hayotning ko'pgina sohalarini, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasini qamrab olgan. Xammurapi qonunlarida dehqonchilik, yer va chorva mollarini ijaraga olish, yerning qarovsiz qolishi oldini olish xunarmandchilik, savdo-sotiq va sudxurlik, pul munosabatlari, xo'jayin, xizmatkor, qul, qarzdorlik va uning oqibatlari o'z ifodasini topgan.

So'nggi neolit davriga kelib qadimgi Mesopatamiya hududida o'lganlar ro'higa sig'inish, totemizm va fetishizm asosiy diniy e'tiqodga aylangan. Har bir urug' o'zining nasabi, ya'ni kelib chiqishini biror bir hayvon, qush, baliq va hatto, hashoratlar bilan bog'liq deb hisoblaganlar. Shu boisdan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan tosh lavhalar sopol idishlar va taxtalar hamda saroy devorlariga chizilgan suratlar va yozuvlarda podsholar ayrim hayvonlarning nomlari bilan ataladi.

Ba'zi bir xudolar hayvonlar va qushlar shaklida gavdalantirilgan. Keyinchalik xudolarning ko'pchiligi antropomorfik (odamsimon) qiyofaga kira boshlagan. Ularning hayoti ham odamlarning hayoti shaklida tasvirlangan.

Qadimgi shumeriylar olamning paydo bo'lishi to'g'risidagi ta'limotni yaratganlar. Ularning tasavvuriga ko'ra An (akkadlarda Anu) osmon xudosi, Ki esa yer ma'budasi hisoblangan. Bu ilohiy juftlikdan havo xudosi Enlil to'g'ilgan. U yer bilan osmonni tutashtiruvchi baland tog' tepasida yashaydi va butun olamni idora qilib, xudolar panteoniga boshchilik qiladi. Shu boisdan, qadimgi shumerlar Nippur shahrida xudo Enlilga atab yirik va hashamatli ibodatxona quradilar. Bu ibodatxona «Tog' uyi» («E-kur») deb nomlangan. Mazkur ibodatxona shumerlarning umum ziyoratgohi hisoblangan. Har bir shumer bu ibodatxonaga kelib ziyorat qilib ketishni o'zi uchun muqaddas deb bilgan.

Qadimgi shumerlar Oy xudosini Naniar (akkadlarda Sin), uning o'g'li quyosh xudosini Utu (akkadlarda Shamash), uning qizi hosildorlik va muhabbat ma'budasini esa Ininna (akkadlarda Ishtar) deb ataganlar. Shu bilan birga qadimgi Shumerlar Dajla va Frot daryolarining toshib, hayiqirib oqishidan vahimaga tushganlar. Natijada suv tufoni xudolari Apsu va Tiamat to'g'risidagi diniy tasavvurlarga ham ega bo'lganlar. Lekin dehqonchilikning rivojlanishida suvning foydali tomonlaridan ko'z yummaganlar. Shu boisdan ular xayrli va muruvvatli suv xudosi, odamlarga turli xil kasb – hunarlar, san'at va bilim o'rgatuvchi donishmandlik xudosi to'g'risidagi tasavvuvrga ega bo'lishgan. Ea loydan odamlarni yaratib, ularga san'at, bilim va turli xil kasb – hunarlarni o'rgatadi.

Shumeriylarning (shuningdek akkadlarning ham) tasavvurlariga ko'ra, o'simliklarning o'sishi, hayvonlarning qo'lga o'rgatilishi, hunarlarning paydo bo'lishi, oilalarning mavjudligi, odamlarning o'rtasidagi munosabatlar-bularning barchasi osmon va unda makon qurgan xudolarning irodasidan.

Shumeriylar, akkadlar, so'ngra bobilliklarning tasavvurlariga ko'ra odamlarning itoatsizligi tufayli xudolar ularga turli ofatlarni yuborib turadi. Masalan, bir afsonaga ko'ra odamlarning itoatsizligi uchun xudo Enlil yerga dahshatli tufonini yuboradi. Dunyo suv ostida qoladi. Faqat xudojo'y O'tnapishtim donishmandlik xudosi Eaning maslahati bilan

katta kema yasab, o'z oilasi va jonivorlardan bir juft, bir juft olib jon saqlaydi va tufondan omon qoladi. (Mazkur afsona keyinchalik Bibliyaga Nuh to'foni sifatida o'tgan).

Bizningcha, qadimgi shumer, akkad va bobilliklarning diniy qarashlari va xudolar panteoni to'g'risidagi tasavvurlari keyinchalik yunonlarning diniy qarashlari va xudolari panteonining vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Qadimgi shumeriylar haykaltaroshligi ham o'ziga xos tarzda rivojlangan. Ular haykallarni qotib qolgan tarzda yasagan bo'lsalar-da, asosiy e'tiborini uning ko'ziga qaratganlar. Haykalning ko'zi har xil toshdan terib ishlangan. Bo'rtma rasmlardagi odamlar hayvonlar juda sodda va qotib qolgan tarzda tasvirlangan.



Qadimgi xalq og'zaki ijodi shumer, Akkad, so'ngra bobilliklar ma'naviy madaniyatining eng rivojlangan elementlaridan biriga aylanadi. Xalq og'zaki ijodi barcha xalqlarga xos tarzda kishilarning tabiatga munosabatlari ta'siri ostida vujudga keladi. Dehqonchilik va chorvachilikka, tabiat hodisalari va diniy e'tiqodlarga oid ko'plab maqollar, matallar, masallar, ertak va afsonalar, qo'shiq va rivoyatlar paydo bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi namunalarida turmish iker-chikirlaridan tortib ijtimoiy muammolarga oid mavzular o'z ifodasini topadi. «Ot bilan ho'kiz janjali», «Tulki to'g'risida» va boshqa masallar orqali ko'pgina ijtimoiy munozarali muammolar hayvonlar tilida hikoya qilinda.

Mehnat jarayonida aytiladigan qo'shiqlar yoki mehnat jarayonini tasvirlab beruvchi turli harakatlar natijasida dastlab she'riy, so'ngra epik janrlar paydo bo'ladi. She'riy asarlar ko'proq maishiy hayot, intim munosabatlar va mehnat jarayonini tasvirlab bergan bo'lsa, epik asarlarda ko'proq xudolar darajasiga ko'tarilgan qahramonlar, ularning jasoratlari va boshdan kechirgan sarguzashtlari hamda xudolar tomonidan belgilab qo'yilgan og'ir qismlari hikoya qilinadi.

Qadimgi shumeriylar adabiyotining nodir va buyuk durdonasi «Gilgamesh haqida doston» dir. Dostonda odamning hayoti, hatto mashhur qahramonlarning ham o'lim oldida ojiz ekanligi, o'lim azaliy taqdir ekanligi kuylanadi. Doston to'rtta qismdan iborat bo'lib, uning 1-qismida Gilameshning qadimgi Uruk shahrini idora qilishi va dostonidagi ikkinchi

qahramon – Enkiduning paydo bo`lishi; 2-qismida Gilgamesh va Enkiduning dushmanlarga qarshi kurashdagi jasoratlar; 3-qismida Gilgameshning abadiy hayot o`тини qidirib bobosi Utnapishtim huzuriga otlanishi va yo`ldagi sarguzashtlari; 4-qismida Gilgameshning marhum do`sti Enkiduning arvohi bilan uchrashuvi hikoya qilinadi.

Xo`jalik ehtiyojlarining chuqurlashuvi fan ko`rtaklarining vujudga kelishi hamda, binolarning hajmini belgilash, mahsulotlarning miqdori va og`irligini o`lchash, binolarning hajmini belgilash, dalalarning yuzasini ulchash zarurati matematika va geometriyaning paydo bo`lishiga olib kelgan. 5, 6, 10 sonlari hamda ularining ko`paytmalari hisoblanuvchi 30 va 60 sanoq sistemasiga ham shumeriylar asos solganlar.

Shumer-Akkad davridayoq astranomik kuzatish ishlari olib borilgan. Shumer va Bobilliklar astranomlar yetti qavatli ibodatxona (zikkurat) larning tepa qismidagi maxsus maydonchadan turib osmon jismlarining harakatlarini kuzatganlar. Ular dunyoning to`rt qismga bo`linishi to`g`risidagi tasavvurlarga ega bo`lganlari va yulduzlarni beshta planitadan ajrata bilganlar. Quyoshning tutilishi natijasida jamlangan kuzatish ishlari astranomik hujjatlarda berilgan. O`ziga xos taqvim yaratilib, bir yil 354 kun deb ko`rsatilgan.

Tabobatda ko`proq sehr-jodudan foydalanishga uringanlar. Lekin turli xil o`tlardan dori-darmonlar tayyorlaganlar. Jarroxlikda bronza pichoqdan foydalanib, ko`z operatsiyalariga qo`l o`rganlar, ko`zga tushgan pardani olib tashlab, tashqi yara va o`simtalarni jarroxlik yo`li bilan tuzatganlar. Qadimgi shumer va bobilliklar me`morchilikda shuxrat qozonganlar. Mil. avv 1 ming yillikdayoq me`morchilikning yuksak namunalarini o`zida birlashtirgan Eridu, Nippur, Ur, Umma, Uruk, Lagash shaharlari vujudga kelgan.

Shumerlar dastlabki davrlarda sizot suvlarining binoga ta`sir qilishining oldini olish maqsadida, yirik imoratlar tagini tuproq bilan ko`tarib, uning tepa qismiga hozirgi asfaltga o`xshab ketadigan qotishma yotqizib, so`ngra bino qurganlar.


Shumer – Akkad me`morchiligi Urning III sulolasi davrida (mil. avv 2118-2007 yillar) nihoyatda gullab yashnagan. Qadimgi Ur, Eshnuna va Opis shaharlarida mahobatli saroylar, maqbara va ibodatxonalar qurilgan.

Birgina Bobilning muallaq bog`larining o`zi ham qadimgi davrda arxitekturaning qay darajada rivojlanganligini ko`rsatadi. Bu bog` qadimgi Yunon-makedonlarni bekorga hayratga solmagan. Bobil bog`larining mahobatligi, hashamdor qilib bezatilganligi va mustahkamligini ko`rgan yunonlar uni yetti iqlimning yetti mo`jizalari safiga kiritganlar. Rivoyatlarga ko`ra, bu bog`ni Bobil podshosi Novuxodanosar mil. avv. VI asrda Midiyalik sevikli xotini sharafiga qurdiradi.

To`rt qavatli bog` sun`iy maydon ustiga quriladi va uzoqdan muallaq holda turgandek ko`rinagan. Shu boisdan bu bog` «**Bobilning muallaq bog`lari**» deb atalgan. Bog`ning har bir qavatini toshdan yasalgan ko`plab baland naqshinkor ustunlar ko`tarib turgan. Ravoqlar ustidan g`isht, murakkab bog`lovchi material, ichiga hozirgi tsementga o`xshash qotishma to`ldirilgan chim tushalgan, yana g`isht terilgan. So`ngra suv o`tmasligi uchun qurg`oshin quyib chiqilgan. Har bir qavatga ulkan daraxtlarni ushlab turish uchun qalin qilib unumdor tuproq yotqizilgan. Bir qavatdan ikkinchi qavatga guldor qilib yasalgan zinapoyalar orqali ko`tarilgan. Bog` uchun juda ko`plab mamlakatlardan turli xil daraxtlar va anvoyi gullar

keltirib ekilgan. Minglab qullar bog`ni parvarishlash bilan band bo`lganlar. Bog` Frot daryosidan ulkan charxpalaklar yordamida ko`tarib berilgan suv bilan sug`orilgan. Keyinchalik Frot daryosi o`z o`zanini o`zgartirib, muallaq bog`ni yuvib ketgan.

Bobilning muallaq bog'i



Bobil podshosi
Novuxodanosar mil.
avv. VI asrda
Midiyalik sevikli
xotini sharafiga
qurdiradi.

Semiramida bog'i

Qadimgi shumeriylar haykaltaroshligi ham o`ziga xos tarzda rivojlangan. Ular haykallarni qotib qolgan tarzda yasagan bo`lsalar-da, asosiy e`tiborini uning ko`ziga qaratganlar. Haykalning ko`zi har xil toshdan terib ishlangan. Bo`rtma rasmlardagi odamlar hayvonlar juda sodda va qotib qolgan tarzda tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, Shumer – Bobil madaniyati qadimgi Sharq xalqlari asosan, Old Osiyoning ko`pgina xalqlari madaniy hayotiga ta`sir ko`rsatgan. Shumer yozuvlari Osuriya, Xett, Urartu va Suriya xalqlari yozuvining shakllanishiga, Bobilliklarning o`quv sistemasi, birlik ulchovi, pul birligi Old Osiyoning ko`pgina xalqlari madaniyati keyingi davr-antik davr yunon madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta`sir ko`rsatgan.

QADIMGI MISR MADANIYATI

Misr madaniyati eng qadimgi madaniyatlardan biri bo`lib, taxminan mil. avv 1U ming yillik boshlarida vujudga kelgan. Misrning qulay tabiiy sharoiti eng avvalo dehqonchilikning yanada taraqqiy etishiga yordam bergan. Sun`iy sug`orish yangidan-yangi to`g`onlar, dambalar, ariqlarning qurilishiga charxpalaklar orqali suv chiqarishning rivojlanishiga olib kelgan.

Qadimgi Misrliklar qurol-yaroqlar, uy ro`zg`or buyumlari, haykalchalar yasashda turli xil materiallardan –tosh, suyak, chig`anoq, yog`och, slanets, loy, teri va boshqalardan foydalanganlar. Masalan, ular toshdan boltalar, poyteshalar, o`q uchlari, xususan fil suyagidan taroq, qoshiq, tumorlar, chig`anoqdan esa qarmoqlar yasaganlar. Yog`ochdan bumerang yasagan bo`lsalar, teridan savat va matolar to`qiganlar. Loy esa har xil uy ro`zg`or buyumlarining asosiy materiali xisoblangan. Davlatchilikning vujudga kelishi

kulolchilikning yanada rivojlanishiga, diniy e'tiqodlarda hukmronlarni ilohiylashtirishga, tasviriy san'at va arxitekturaning yanada yukslishiga olib kelgan.

Qadimgi Misrlilar o'likni mumiyolab, qabirga kundalik turmushda ishlatiladigan zarur buyumlarni, turli haykallarni, zeb-ziynatlar, qurol – yarog'larni ko'mishi, maqbara devorlarini marhumning hayotiga oid voqealardan olingan parchalar bilan bezash odati ularning moddiy va ma'naviy madaniy yodgorliklarining hozirgi kunimizgacha saqlanib qolishiga yordam bergan.

Misrlilarning diniy qarashlari asosan totimestik, tabiat hodisalari va podshohlarni ilohiylashtirish, ruhoniylar qudratiga e'tiqod qilish tarzida shakllangan. Ayniqsa, urug' – qabilachilik urf-odatlari bilan bog'liq bo'lgan diniy e'tiqodlar uzoq davrlargacha saqlanib qolgan.

Misr- ehromlar mamlakati



Qadimgi Misrlilar tabiatning stixiyali kuchlari, ayniqsa, Nil daryosining tez-tez toshib katta kulfatlar keltirishidan dahshatga tushishib, suv xudosi Nunga, Nil daryosi xudosi Xapiga e'tiqod qilganlar. Ularning tasavvuriga ko'ra, xudolarning eng yirigi barcha narsalarni yaratib, odamlarga hayot baxsh etish doimo toshib o'zidan keyin serunum tuproq qoldiradi deb oylaganlar. Shuningdek misrlilar Quyoshni ham ilohiylashtirgan. Quyoshni ham stixiyali kuch, ham butun tiik mavjudod uchun zarur bo'lgan issiqlik va yorug'lik manbai deb hisoblaganlar. Quyosh xudosini Ra deb ataganlar va qoq o'rtasiga nuqta qo'yilgan doira shaklidagi ieroglif belgisi bilan yozganlar. V dinastiya fir'avnlari Quyosh xudosi ga atab hashamatli ibodatxonalar qurishib, unga topinish marosimini o'tkazganlar.

Bundan tashqari qadimgi Misrda ko'plab yirtqich va uy hayvonlariga, turli xil qushlar, suv jonzorlari va hatto, hasharotlarga ham sig'inish keng yoyilgan. Misrning har bir "sepat" (viloyat) larining o'z muqaddas hayvonlari bo'lgan. Masalan, Fayum vohasida timsoh ilohiylashtirilgan. Ularning tasavvuriga ko'ra suv ruhlari va parilar makoni. Ularga suv girdobi xudosi hisoblangan timsoh boshli Sabk podshohlik qiladi. Shu boisdan timsohni

ovlash man qilingan. Timsohlarning bolalari ibodatxonalaridagi maxsus hovuzlarda boqilgan. O'lgan timsohlarni mo'miyolab, so'ngra dafn qilishgan. Tenis, Memfis va Ensa shaharlarida urg'ochi sher – ma'buda Soxmetka, Buto shahrida zaharli ilon – ma'buda Uajitga, Mendes, Germopol va Likopol shaharlarida esa muqaddas echkiga e'tiqod qilganlar. Mushukka ozor berish eng katta jinoyatlardan biri deb hisoblaganlar. Ba'zi hollarda hayvonlar orasidan bittasini tanlab olishib (boshqalardan ajratib turadigan belgilarga ega bo'lganini), uni ilohiylashtirganlar. Masalan, ho'kizni ilohlashtirganda, tanlab olingan ho'kizning rangi, dumidagi juni va boshqa tashqi belgilari boshqalaridan ajralib turishi shart bo'lgan. Tanlangan ho'kiz – xudo Apisni Memfisidagi maxsus ibodatxonaga olib kelishib, uning ilohiy ekanligini e'lon qilganlar. Ho'kiz o'z umrini yashab bo'lgach, uni maxsus sag'anaga dafn qilganlar va butun aholi motam tutgan. So'ngra oldingi ho'kizga o'xshash belgilarga ega bo'lgan yangisi qidirilgan. Yangi xudo Apis topilgach, motamning tugaganligi e'lon qilingan va tantanalar boshlangan.

Vaqtlar o'tishi bilan hayvonlar ramzidagi xudolarga e'tiqod qilish podshohlik ramziga aylanib, ularni muqaddaslashtirishga zamin yaratilgan. Natijada timsoh, lochin, ilon, ho'kiz, sher va boshqa ilohiy hisoblangan hayvonlar podshoh homiylariga aylangan. Bu ilohiy hayvonlar podshoh toji – bosh kiyimida o'z aksini topgan. To'g'ri, podshohlarni ilohiylashtirishga hayotda ro'y berib turuvchi siyosiy voqealar va siljishlar, ijtimoiy taraqqiyot jarayoni, ijtimoiy iqtisodiy hodisalar ham kuchli ta'sir ko'rsatmasdan qolmagan.


O'limni boshqa dunyoda yashash deb tasavvur qilish qadimgi misrliklar diniy dunyoqarashining asosiy xususiyati hisoblangan. Shu boisdan o'lgan kishi bilan birga uning tirikligida foydalangan barcha buyumlari (albatta fir'avn va zadogonlarning) qo'shib ko'milgan. Dastlabki paytlarda marhumni teriga, qamish chipta yoki matoga o'rab, xuddi uxlab yotgandik, bukchaytirgan holda dafn qilganlar. So'ngra boy amaldor va kohinlarni kursisimon maqbara mastabalariga dafn qilish rasm bo'lgan. Fir'avnlr esa ("Fir'avn" so'zi aslida majoziy ma'nodagi "Ulug' uy" ma'nosini anglatadi.) o'zining qudratini namoiyish qilish va u dunyodagi mustahkam joyga ega bo'lish uchun o'ziga atab ulkan piramidalar, mil. avv II ming yillik o'rtalariga kelib esa yer osti maqbaralarini qurdirganlar. Fir'avn vafot etgach, uning narigi dunyodagi umrini yanada uzaytirish uchun jasadni mo'miyolash odat tusiga aylangan. Mo'miyolashdan oldin jasadning ichki a'zolari olinib, maxsus idish kanopga solib qo'yilgan. Tanani xushbuy katron solingan idishda 70 kungacha saqlangan. So'ngra jasadni oltindan yasalgan yoki oltin plastinka bilan qoplangan, turli qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan tobut (sarkofag) ga solganlar. Fir'avnning jasadi saqlanadigan xonaga tirikligida foydalangan barcha narsalarini birga ko'mishdan tashqari xonaning devorlariga tiriklik davridagi hayotidan lavhalar chizib qo'yilgan. Fir'avnlarni ilohiylashtirish ibodatxonalar va ularning devorlariga chizilgan suratlarda, fir'avnlarni madh etuvchi qo'shiq matnlari orqali ham mustahkamlangan.

Misrliklarning xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma adabiy – badiiy asarlari bizgacha tosh bitiklar, papirus va ibodatxonalar, saroylar, piramida va maqbaralarning devorlariga tushirilgan yozuvlar orqali yetib kelgan. Misr adabiyotida turli xil mavzular vatanni qumsash, jasurlik, falsafiy va diniy, ishq – muxabbat, afsonaviy, yaxshilik va yomonlik, baxt va boshqa mavzular o'z ifodasini topgan. Masalan, Sinuxet (Yirik

mansabdor) taxt uchun kurashda fitnada qatnashadi. Fitna bostirilgach, Fir'avnning g'azabidan qo'rqib Sinay cho'llariga qochib ketadi. U yerda boy-badavlat qabila boshlig'ining qiziga uylanadi. Mahalliy polvonni yengib, nixoyatda mashxur kishiga aylanadi. Lekin vatan sog'inchi xamma narsadan ustun turgan. U Fir'avndan kechirim surab Misrga qaytadi.

“Hayotdan kungli sovigan odamni o'z ruhi bilan suxbati” asarida hayotning ma'nosi va yashashdan maqsad mazmunida falsafiy mushoxada yuritiladi. “Piramidalar matnlari”, “Murdalar kitobi” asarlarida diniy mavzular bayon qilinadi. “Piramidalar matnlari” maqbaralar, piramidalar ichidagi dafn xonalariga yozilgan bo'lib, ularda “Xudolar dargohiga kirayotgan”, “Jannatga qadam bosayotgan” hukmdorning baxtli damlari va hayoti tasvirlangan.

“Murdalar kitobi” da ko'proq narigi dunyo podshosi Osiris uning rafiqasi Isida, singlisi Neftida, o'g'li Gor va yovuz ukasi Sit (U odamlar va tabiatga zarar keltiruvchi cho'l, garemsel, sho'r suvlar hukmdori sifatida talqin qilinadi) to'g'risida afsonalar hikoya qilinadi.



Shuningdek Misr adabiyotida koxinlar qaytadan ishlagan xudolar to'g'risidagi afsonaviy qissalar ham joy olgan. Mazkur afsona-qissalarida Quyosh xudosi Ra bosh xudo hisoblangan. Ra ibtidoiy to'fonlar zamoni vujudga kelgan emish. U nilufar gulidan chiqib kelib butun mavjudotni yaratgan. Raning og'zidan xudolar, ko'zidan odamzod kelib chiqqan. Osmon kengashini Ra boshqargan. Yozuvni ixtiro qilgan. Donishmandlik xudosi Tot uning kotibi bo'lgan. Ra obrazi yerdagi Fir'avn hislatlarini ola boshlagan. Fir'avn oldida hamma fuqaro yerga yiqilib ta'zim qilishga majbur bo'lgan. Feva davlatchilik yuksalgandan keyin yerli xudo Amon xudo Ra bilan tenglashtirilgan va Amon-Ra deb atala boshlangan.

Qadimgi Misrliklar matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot va geografiya fanlarining rivojiga ham o'z hissalarini qo'shganlar. Misrlik olimlar murakkab matematik masalalarni yechib, kesik piramida yuzasi va aylananing diametriga nisbatini aniq hisoblab chiqqanlar.

Ular Sirius yulduzining harakatini chuqur o'zlashtirib, Nil daryosining toshish davrini aniq ko'rsatib beradilar. Ular quyosh taqvimini yaratganlar. Bir yilni o'n ikki oyga, har oyni o'ttiz kunga va qolgan besh kunni hech bir oyga qo'shmasdan bayram qilganlar. Bayramning beshinchi kuni tugagach, yana yangi yil hisobi boshlangan.

Misrlik tabiblar odam anatomiyasini yaxshi bilganlar. Tabiatga oid papirus matnlariga tabibdan bemorni atroflicha ko'rish, kasallik alomatlarini bilish. to'g'ri tashxis qo'yish va davolash uslubini to'g'ri tanlash talab qilinganligi yozib qoldirilgan. Shuningdek Misr tabobatida genekologiya, jarroxlik, ichki va ko'z kasalliklari to'g'risidagi bilimlar ancha chuqur bo'lgan.

Misr arxitekturasini va tasviriy san'ati ibtidoiy jamoa tuzumining va ilk podsholikning vujudga kelishi bilan taraqqiy etib boshlagan. Qadimgi Misr san'ati din va uning turli xil marosimlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Me'morchilik san'ati esa, ular tomonidan qurilgan maqbaralar, piramidalar, saroylar, ibodatxonalarda o'z ifodasini topgan. Yangi podsholik davrida / mil. avv. 1584-1071 yillar oralig'i/ yirik ustunli va maxobatli ibodatxonalar /. Masalan, Luksor, Karnak ibodatxonalari/ qurilgan. Ibodatxonaga kirish joyining o'zi o'ta dabdabali bo'lgan. Ibodatxonalar rufarasida qudrat va donishmandlik ramzi hisoblangan sfinkslar hiyoboni joy olgan. Ibodatxonalarning devorlariga turli rang bilan ishlangan suratlar va ieroglif /tasvirli yozuv/ lar tushirilgan. Rasmlardagi kishilar o'ta jiddiy qilib tasvirlangan.

Saroylar qurilishiga xam aloxida e'tibor berilgan. Masalan, fir'avn Axetaton / mil. avv. XIII asr / Nil daryosining qirg'og'ida ulkan saroy qurdiradi. Tarixiy manbalarda ko'rsatishicha, saroy fasadining uzunligi 700 metr bo'lgan. Saroy zallar serhasham qilib bezatilgan va yirik ustunlar bilan ko'tarilgan. O'sha davrning mashxur rassomlari saroy ichini bezash uchun turli xil manzaralar, saroy va fir'avn hayotini ifodalovchi suratlarni tushirgan.

Qadimgi Misr ehromlaridan birinchisini III dinastiya sulolaning fir'avn Joser o'zi uchun qurdirgan. Joser piramidasining qurilishiga astronom, tabib, donishmand va me'mor Imxotep boshchilik qilgan. Mazkur piramida mil. avv. 2780 yilda barpo etilgan bo'lib, u zinapoya shaklida yuqoriga ko'tarilib borgan. Piramidaning balandligi 60 metrlar chamasini bo'lgan uning atrofiga turli xil marosimlar o'tkazish uchun mo'ljallangan qo'shimcha binolar qurilgan.

IV suloladan boshlab qadimgi Misrda piramidalar va maqbaralar qurish odat tusiga aylangan. Sulolaning **Xufu** / Xeops / , **Xafra** / Xefren / va **Minkaura** / Mikeren / kabi fir'avnlari ulkan piramidalar qurdirgan. Xufu / Xeops / piramidasini eng ulkan piramida bo'lib, yunonlar maskur piramidani yetti iqlimning yetti mujizasiga kiritganlar. Xufu piramidasini eng ulkan va mustaxkam inshoot bo'lib, uning qurilishiga xar birining og'irligi 2,5 tonnadan iborat 2 million 300 ming dona oxak tosh bloklari ishlatilgan. Piramidaning ichki qismida bir-birini bog'lagan chalkash yullar bo'lib, ularning birgina ushoq jasadi

qo'yilgan xonaga olib borgan. Jasad qo'yiladigan xana piramidaning o'rta qismida joylashgan. Xona xar birining og'irligi 60 tonnadan iborat granit bloklardan qurilgan. Piramidaning balandligi 147 metr pastki qismining xar bir tomoni 137 metrni tashkil etadi. Maskur piramida 20 yil mobaynida qurilgan.

V Suloladan boshlab hajmi uncha katta bo'lmagan piramidalar qurila boshlagan. Lekin asosiy e'tibor piramida majmuini tashkil etuvchi ibodatxonalarga qaratilgan. Umuman Misrda 70 dan ortiq piramidalar qurilgan.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi Misr madaniyati o'ziga xos taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan bo'lib, umumjaxon madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Qadimgi Misrlilarning yuksak did va aql – zakovat natijasida bunyod etilgan moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari o'zidan keyingi, ayniqsa, antik davri yunon, Rim va shimoliy Afrika xalqlarining madaniy taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

QADIMGI HINDISTON MADANIYATI.

Hindiston hududi o'zining iqlimi va tabiiy boyligi bilan, ya'ni insonning yashashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlari hamda imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Shu boisdan Hindiston insoniyat tsivilizatsiyasining eng qadimgi maskanlaridan biri hisoblangan.

Hindistonning Braxmaputra, Hind va Ganga daryolaridan suv ichadigan xududlari qadimgi dehqonchilik rivojlangan vodiylar hisoblangan. Antropologik ma'lumotlar esa, Hindiston hududida taxminan bir million yillar ilgari odamlar yashaganligini aniqlab bergan. Dastlab ular ovchilik va termachilik faoliyati bilan shug'ullanganlar.



Hindistonning etnolingvistik tarkibi xilma-xildir. Taxminlarga ko'ra, dastlabki davrlarda munda va dravid tillarida so'zlashuvchi etnik guruxlar istiqomat qilganlar va qadimgi hind madaniyatiga asos solganlar. Mil.avv. II ming yilliklarga kelib, Eron va O'rta Osiyo tomonidan yevropeoid irqining janubiy tarmog'iga kiruvchi qabilapar kirib keladilar va maxalliy etnik birliklar bilan aralashib ketadilar. Ayrim ma'lumotlarda berilishicha, Hindistonda bir yarim mingdan oshiqroq til va shevalar mavjud.

Hindiston hududlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar qadimiy madaniyat mil.avv. III ming yillikdayoq paydo bo'lganligini aniqlab bergan. Moxinjodaro va Xarrapa qazishmalari esa mil.avv. III va II ming yilliklar oralig'ida shahar madaniyati tarkib topganligini ko'rsatadi.

Mil.avv. VII- VI asrlarga kelib quldorlik davlatlari, so'ngra Chantragupta asos solgan yirik Mauriya imperiyasi vujudga keladi.

Qadimgi hindlarning eng dastlabki diniy qarashlari ota-bobolari ruhiga topinish, tabiatni / xinduizm diniga xos e'tiqod turi /iloxiylashtirish va totemistik ko'rinishda bo'lgan. Xinduizmda tog'lar, joylar, daryolar /masalar, Ganga daryosi/, o'simliklar, xayvonlar/ masalan, sigir, fil, maymun, ilon /muqaddas sanaladi va ularga topiniladi. Hindistonda sigirni ona bilan tenglashtiriladi. Ayollar go'zalligini ta'riflamoqchi bo'lsalar, „sigirdek go'zal“, „sigirdek soxibjamol“ iboralarini ishlatadilar.

Hindlarning dastlabki diniy qarashlari „**Veda**“/!**Muqaddas bilim**“/ lar to'plamida o'z ifodasini topgan. „Veda“ larda ko'rsatilishicha, qadimgi xindlar olov xudosi Agniga, yomg'ir va momoqaldiroq xudosi Indraga, Oy va sarxush qildiruvchi ichimliklar xudosi Somoga, qurg'oqchilik xudosi Vritraga, Quyosh xudosi Varunaga, dexqonchilik va xosildorlik xudosi Aditiga e'tiqod qilganlar. Veda"lar mil.avv.II ming yilliklarda yaratilgan bo'lib, to'rt kitob „Rigveda“, „Samoveda“, „Yajurveda“, „Atxarvaveda“dan iborat bo'lgan. Barcha to'plamlar xudolarni madh etuvchi qushtlar, diniy marosimlarni bajarish tartiblari va marosimlarda qo'llaniladigan duolardan iborat bo'lgan.

Markazlashgan yirik davlatlarning tarkib topishi, yagona xudolar to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishiga olib keladi. Dastlab podsholarni iloxiylashtirish, so'ngra yagona xudo e'tiqodi paydo bo'ladi. „Veda“larda ko'rsatilishicha, yagona xudo Prajapati munavvar olamni, yerni, nurni, keng osmonni, odamlarni, xayvonlar za barcha maxluqotlarni yaratgan.


Quldorlik tuzumining kuchayishi, ya'ni ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlaridagi larzalar, jamiyat xayotidagi tanazzul diniy tasavvurlarda xam tub o'zgarishlarning vujudga kelishiga olib keladi. Natijada yangi diniy e'tiqod - **braxmanizm** paydo bo'ladi. Braxmanizm yakka xudo / Xinduizmdagi tri murtaga kiruvchi xudolardan biri /-barcha narsalarni yaratuvchi xudo Braxmaga e'tiqod qilishdir. Braxma dastlab dunyoni yaratuvchi va boshqaruvchi xudo tarzida tasvirlanadi. Albatta Braxmanizmning vujudga kelishida , „Veda“lardagi yaratuvchi xudo Prajapati, xinduizmdagi yaratuvchi xudo-Braxmalar timsolining birga qo'shilib kelishi, yakka xudoga sig'inishga bo'lgan intilishning kuchayishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Braxmanizmda jonning ko'chib yurishi to'g'risidagi ta'limot diniy nuqtai nazardan asoslab beriladi.

Mil.avv-VI asrlarga kelib Hindistonda yangi diniy ta'limot-Buddaviylik ta'limoti vujudga keladi. Buddaviylikning kelib chiqishiga asosiy sabab, birinchidan, braxmanizm Mouriya imperiyasini boshqarish va markazlashtirish siyosatini amalga oshirishda mamlakat tepasidagi sulolaga yordam bera olmay qolgan, ikkinchidan, braxmanizmda kastachilik oqlanar va qo'llab-quvvatlanar edi.

Kastachilik /„kasta“portugalcha soʻz boʻlib, „qavm“degan maʼnoni anglatadi/ asli xinduizmning asosiy elementi boʻlib, uning paydo boʻlishida mexnat taqsimoti muxim rol uynagan. Hindistonda axoli toʻrtta kastaga boʻlingan. 1.**Braxmanlar**-ruxoniylar va zadagonlar. 2.**Kshatriylar** harbiylar, badavlat dexkonlar savdogarlar va sudxurlar. 3.**Vayshiylar**-xunarmandlar. 4. **Shudralar**-past toifadagi kishilar guruxi, yaʼni huquqsiz dehqonlar, farroshlar, kir yuvuvchilar va boshqalar. Hinduizm ta'limoti, soʻngra braxmanizm ta'limotiga koʻra, braxmanlar xudo Braxmanning boshidan, kshatriylar uning qoʻlidan, vaishiylar uning qornidan, shudralar esa uning oyogʻidan paydo boʻlishgan. Birinchi uch jamoa barcha huquqlarga ega boʻlsalar, shudralar huquqsizlar tabaqasi hisoblanganlar. Ular „nopok“ hisoblanib yuqori tabaqalardan chetda yashashi zarur boʻlgan. Har bir kastaning oʻz „dxarma“si - axloq normalari boʻlib, xar bir kasta aʼzosi yetishib kelayotgan yosh avlodga oʻzlariga tegishli boʻlgan dxarmani oʻrgatishi, ularning qulogʻiga quyishi shart boʻlgan. Past tabaqa xazar qilinganlar deb atalgan. Shu boisdan, ularning yuqori tabaqa yuradigan yuldan yurishi, bir quduqdan suv ichishi, umumiy transportdan foydalanishi, bolalarining birga oʻynashi, oʻqishi, ovqatlanishi taʼqiqlangan. Kasta vakillarining oʻz kastasidan chiqib boshqasiga oʻtishi mumkin boʻlmagan. Kastadan haydalish eng ogʻir jazo hisoblangan. Kastadan haydalganlarga ' „xazar qilinganlar“dan xam koʻra past nazar bilan qaralgan.

Buddaviylik xech qachon dindorlarning nasl-nasabiga eʼtibor bermagan. Rivoyatlarga koʻra, Hind podshoxi Sudgodaning oʻgʻli Sirdxartxa /Gautama/ shahar boʻylab safarga chiqqanining birinchi kuni tinmay yoʻtalayotgan kasal kishini, ikkinchi kuni zoʻrgʻa gavdasini koʻtarib turgan qari cholni va uchinchi kuni odamlar koʻtarib borayotgan marxum kishini koʻrib qoladi. U buning sirini bilolmaydi. Kimdan soʻramasin hech kim toʻgʻri javob bera olmaydi. Shunda shaxzoda oʻz martabalaridan kechib, oʻzi guvoxi boʻlgan xodisalarning moxiyatini aniqlashga bel bogʻlaydi. Saroyi yashirin tarzda tark etib, oʻzini turli xil vaziyatlarga tashlab koʻradi. Ochlik, yupunlik, kasallikni boshdan kechiradi. Hayotda roʻy berayotgan xar bir xodisaning asl moxiyatini anglashga intiladi. Va nihoyat, inson boshidan kechiradigan barcha kulfatlarning asl sababi kishilarning oʻz istaklaridan voz kecha olmasligidir, insonni turli kulfatlarga, balo-qazolarga duchor qiluvchi xayotning oʻzi yovuzdir, degan xulosaga keladi. Bu kulfatlarning oldini olishning birdan-bir yuli kishilarning turli xil ehtiroslar va lazzatlanishlarga berilmasligidir. Agar kishi bunga erisha olsa, u oʻlgandan keyin yangi azob-uqubatlarni qayta boshdan kechirishdan qutuladi, qayta tirilmaydi, yuksak farogʻat makoni boʻlgan Nirvanaga erishadi, degan gʻoyani ilgari suradi.

Moxenjo-Daro



Budda dini imperator Ashoka davrida davlat diniga aylanadi va kishilar hayotining barcha tomonlariga singib boradi. Mil.avv.III asrlarga kelib, buddizm Hindiston hududidan chiqib, Markaziy, Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlariga tarqaladi. Lekin braxmanizm ijtimoiy tabaqalanish kuchli boʻlgan qishloq aholisi oʻrtasida saqlanib qoladi.

Mouriya sulolasidan soʻng imperiyada parchalanish roʻy beradi. Yangi sulolalar buddizmni qoʻllab-quvvatlamay qoʻyadi. Natijada braxmanizm eʼtiqodi yana oʻz taʼsirini kuchaytira boshlaydi.

Hindistonda keng yoyilgan dinlardan yana biri sekhizmdir. Sekhlar hinduizm va islom dini oraligʻidagi sektsiya diniga etiqod qiladilar. Ular antiqa sallasi va sersoqolligi bilan ajralib turadilar. Ular „K“ harfidan boshlanadigan besh taomilga qatʼiy amal qiladilar. 1-taomil-„Kech“-uzun soch; 2-taomil-„Kach“-uzun ishton; 3-taomil-„Kara“-poʻlat bilaguzuk; 4-taomil-„Kurpan“-hanjar; 5-taomil-„Kancha“-yogʻoch taroq. Demak, sekhlar uzun soch qoʻyadilar, uzun ishton kiyadilar, poʻlat bilaguzuk taqadilar, xanjar osib yuradilar, salla tagida koʻrinmaydigan taroq qadaydilar. Sekh erkaklarining soch-soqoliga qaychi tegmaydi. Uzun soch jasorat ramzi hisoblanadi. Har bir sekh nasabiga „singx“/„Sher yurak“/degan soʻz qoʻshiladi.

Qadimgi hindlarning falsafiy qarashlari ham asosan „Veda“larda, epik dostonlar hisoblanuvchi „**Ramayana**“, „**Mahobxorat**“ hamda „Manu qonunlari“, „**Arxashstra**“ kabi qadimgi yozma madaniy yodgorliklarida uchraydi.

Qadimgi Hindiston hozirgi paytda butun dunyoga keng tarqalgan, eng qiziqarli boshqotirma oʻyin,- **shohmotning** ham vatanidir. Shohmot Chaturangga shaklida milodning boshlarida Hindistonda paydo boʻlgan. Shoxmot /Shatranj/ soʻzi aslida qadimgi Hind tili -

sanskrit tilidagi "Chatur"-“turt”, “anga”-„tarkib”maʼnolarini anglatadi. Keyinchalik bu soʻz talaffuzi oʻzgarib „chaturanj” shaklida ishlatila boshlagan.

Dastlabki paytlarda chaturangani 4 kishi oʻynagan. Har bir oʻyinchingining „armiyasi” toʻrt turdagi qoʻshindan - fillar, otlar, jangavor aravalar va piyodalardan iborat boʻlgan. Raqib armiyasi donalarini yutgan gʻolib deb hisoblangan. VII-VIII asrlarga kelib arab mamlakatlariga keng yoyiladi va bu yerda oʻyin tartibi donalarga ayrim oʻzgarishlar kiritiladi. Soʻngra Yevropa mamlakatlaridan Ispaniya va Italiyaga tez tarqaladi. Shaxmat takomillasha borib, donalar soni, taxtaga terish tartibi oʻzgaradi, Ikki kishi oʻynaydigan boʻladi.

Qadimgi hindlar yaratgan badiiy asarlar syujetlarida asosan oʻtmishda roʻy bergan tarixiy voqealar, hind xalqining sevimli qahramonlari va mamlakat tarixiga oid voqealar aks ettirilgan. Masalan, rivoyat va afsonalardan iborat boʻlgan "Puranalar" toʻplami diniy aqidalar, odamlar, xudolar va qahramonlarning kelib chiqishiga bagʻishlangan boʻlsa, „Ramayana" va „Mahobhorat" qahramonlik dostonlari hisoblanadi.

"Ramayana" dostoni mil.avv. VI-V asrlarda shoir Valmiki tomonidan yozilgan boʻlib, unda hindlarning afsonaviy qahramoni Ramaning jasurligi va qahramonliklari, inson hayoti va oilaviy munosabatlariga oid koʻplab rivoyatlar beriladi.

Afsonaviy donishmandga aylangan Vyasa mil.avv. I ming yillikda podshox-urugʻlaridan boʻlgan Kavrular va Pandular deb ataluvchi urugʻlarning oʻzaro taxt talashishlarini hikoya qiluvchi "Mahobhorat" dostonini yaratadi. Vaqt oʻtishi bilan „Mahobhorat"ga koʻplab afsonalar, ertaklar masallar, ibratli hikoyalar kiritib borilgan.

Hind arxitekturasi, haykaltaroshligi va tasviriy sanʼatining rivojlanishi bevosita buddaviylik dini bilan bogʻliq holda roʻy bergan. Buddaga bagʻishlangan ibodatxonalar oʻzida budda va uning izdoshlari haykallari hamda freskalarda oʻz ifodasini topgan. Buddaga bogʻliq meʼmoriy yodgorliklardan biri stupalardir. Rivoyatlarga koʻra, Buddaning hoki qoldiqlari va u bilan bogʻliq buyumlar ana shu stupalarda saqlanadi. Stupa aylana shaklidagi /osmon ramzi/ supa ustiga oʻrnatilgan yarim sferik gumbazdir. Stupaning tomonlariga darvozalar oʻrnatilgan boʻlib, boy boʻrtma tasvirlar bilan bezatilgan. Stambxlar /ustunlar/ ham hind arxitekturasining noyob koʻrinishlaridan biri hisoblanadi. Sgambxlar hind imperiyasining tanholigi va jipsligini koʻrsatuvchi ramzdir. Stabxlarning yuqori qismiga hayvonlar tasviri tushirilgan yoki hayvon haykali oʻrnatilgan kapitel bilan tugallanadi. Chaytyalar ham hind xalqining arxitektura yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Chaytyalar qoyalarga oʻyib ishlangan ibodatxonalardir. Chaytyalar devoriga ishlangan suratlar yagona fikr - insonning hayotga boʻlgan mehr-muhabbati, uy-fikrlari, orzu-umidlari, his-tuygʻulari va tasavvurlarini ifodalab beradi.

Hindlarning relefli va stanokli haykaltaroshligida koʻproq shartlilikka moyillik sezilib turadi. Hayotiy va afsonaviy obrazlar aralashib ketadi. Masalan, uch yuzli Shiva haykallari olib qaralsa, unda hayotiylik ham afsonaviylik ham umumlashib ketadi, yaʼni Shiva bitta haykalda uch qiyofali tarzda-Shiva yaratuvchi, Shiva homiy, Shiva yovuz, yaʼni borlikni yoʻq qiluvchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Sugʻorma dehqonchilik aniq fanlar, ayniqsa, **matematika** fanining rivojlanishiga yordam bergan. Yerni haydash, ekin ekish, parvarish qilish va hosilni yigʻib terib olish

osmon jismlari harakatiga qarab aniqlangan. Natijada **astronomiya** fani taraqqiyotiga erishilgan. Quyosh tavqimi paydo bo'lgan va u 360 kundan iborat deb hisoblangan. Astronomik yil har besh yilda to'g'rilangan, yani ortib qolgan 25 kun kabisa oyi sifatida har besh yilda qo'shib borilgan.

Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi hind astronomlari milodiy V-VI asrlarga kelib yerning sharsimon ekanligini, o'z o'qi atrofida aylanishini va tortish kuchiga ega ekanligi to'g'risida xira tasavvurga ega bo'lganlar.

Mil.avv.III-II asrlardayoq hindlar o'nlik sanoq sistemasidan foydalanganlar. Nol belgisi ham hindlarda ishlatilgan. Buyuk ajdodimiz al-Xorazmiy o'zining „Hind arifmetikasi haqida kitob“ asarida hindlarning ana shu o'nlik raqamlari sistemasini yana ham soddalashtiradi va har bir hisob raqami orqasiga 0 ni tirkash natijasida katta-katta sonlarni vujudga keltirish mumkinligini isbotlaydi. Natijada hindlarning o'nlik sanoq sistemi dastlab arab-musulmon matematikasida ishlatiladi, so'ngra Yevropa va butun dunyoga tarqaladi.

Braxmanizm dinining mashhur kohini Panini adabiy sanskrit tilining grammatikasini tuzib chiqib hind adabiy tilining keyingi rivojiga ulkan hissa qo'shadi.

Xullas, qadimgi hind madaniyati ham umuminsoniyat madaniyatining ajralmas bir qismi bo'lib, keyingi davr Shimoliy, Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlari madaniyatiga, uning rivojlanishiga o'zining ta'sirini o'tkazib kelgan.

QADIMGI XITOIY MADANIYATI.

Arxeologik qazishmalar Xitoy hududlarida odamlar qadimgi davridayoq yashaganligini ko'rsatadi. Pekin yaqinidagi Chjoukoudyan g'oridan 40 taga yaqin sinatrop /xitoy odami/ qoldiqlari torilgan. Shuningdek, Xitoyning boshqa joylarida /masalan, Xenanda/ ham qadimgi odamlarning madaniyat manzilgohlari bo'lganligi aniqlangan.

Mil.avv. II ming yillik o'rtalariga kelib, dehqonchilik, chorvachilik odamlarning asosiy mehnat faoliyatiga aylangan. Yanshao/Xenan/da olib borilgan qazishma ishlari odamlar tesha. bolta, sopol buyumlar, jumladan, uch oyoqli idishlardan foydalanganliklarini aniqlab berdi. Yanshao odamlari sholi ekib, qo'shni qabilalar bilan mol ayira boshlab savdo-sotiqni rivojlantirganlar.

Mil.avv.XVIII asrlarga kelib, Xuanxe /Sariq/ daryosi havzasida dehqonchilik nihoyatda rivojlanib, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiy etgan. Natijada ilk Shan /In/ quldorlik davlati paydo bo'lgan.

Qadimgi Xitoylar dastlab ota-bobolarruhini ilohiylashtirganlar. Butun mavjudotning otasi hisoblangan Nyuyva olam va odamzodni yaratgan.

Shuningdek, qadimgi xitoylar quyosh, oy, sayyora va yulduzlar, yer, tog'lar va daryolarni ham muqaddaslashtirganlar. Masalan, Xuanxe daryosining toshib kishilarga ko'plab talofatlar keltirib turishini „sariq ajdarga“ qiyoslaganlar. Shu bois unga qurbonliklar berib turganlar. Bu tasavvur suv ofatiga qarshi kurashuvchi, dehqonchilikka homiylik qiluvchi imperator Xuandi obrazini ilohiylashtirishga olib kelgan. Xitoyliklarning tasavvuriga ko'ra, Xuan Di/sariq podsho/suv ofatiga qarshi kurashish uchun osmondan qurg'oqchilik ma'budasini yerga tushiradi va suv ofatining oldini oladi.

Qadimgi Xitoy madaniyati



Imperator Tsin Shixuan




Qadimgi Xitoyliklarning dastlabki falsafiy qarashlari mil.avv. IX-VIII asrlarda yaratilgan „I-tsin“/, „O`zgarish kitobi“/da beriladi. Bu asarda butun borliqning asosini besh xil element metall, yog`och, suv, olov va tuproq tashkil etishi ko`rsatib o`tiladi.

Mil. avv. 1 ming yillik o`rtalariga kelib Xitoy faylasufi **Kuntszi** /mil.avv.551-479/ **konfutsiy** ta`limotiga asos solgan. Kun Tszi o`z falsafiy qarashlarini „**Aforizmlar**“ asari orqali ilgari suradi. Uning falsafiy ta`limotidagi asosiy urg`u patriarxal davr ahloqiy an`analarini saqlab qolishga qaratilgandir. Kishi harakteridagi yuvvoshliq, itoatkorlik, o`zidan kattalar, amaldorlarga so`zsiz bo`ysunish, ya`ni xo`jayin xo`jayinligicha qolishi, kichiklarning kattalarga bo`ysinishi zarurligi masalasi ilgari suriladi. Konfutsiy ta`limotiga ko`ra "odamlarning" barchasi tug`ma hususiyatlarga ko`ra, bir-biriga o`xshaydi. Tug`ilganidan keyin hosil qilinadigan hususiyatlariga qarab esa bir-biridan farqlanadilar. Faqat eng ulug` odam bilan ovsargina hech qachon o`zgarmaydi. Demak, tobeni xo`jayinga, o`g`ilni otaga, kichikni kattaga, fuqaroni amaldorga bo`ysindirish uchun ularga yuvvoshlik ruhi singdirilishi kerak. Shuningdek, Konfutsiy qadimgi Xitoyda insonparvarlik/jen/ g`oyalarini birinchi bo`lib ilgari suradi. Uningcha, insonlar o`rtasidagi o`zaro hurmat va muhabbat hukmron bo`lishi zarur. Bu ta`limotga ko`ra, davlat tepasida aqlli odamlar turishi kerak va ular o`z hatti-harakatlari, hulq- atvorlari bilan butun xalqqa o`rnak bo`lishlari zarur, deb ta`kidlanadi. Konfutsiy ta`limotida insonning aqliy mavjudot sifatidagi ahloqiy fazilatlariga alohida etibor bilan qaraladi. Mazkur, ta`limotga ko`ra, avvalo insonning ahloqiy fazilatlarini samoviy qudrat tomonidan belgilab qo`yiladi, lekin inson o`zida umuminsoniy ahloqiy fazilatlarini mujassamlashtira olsa, komil inson darajasiga ko`tarilishi mumkin. Buning uchun inson ijtimoiy ahloq normalari hisoblangan „Li“ga amal qilishi zarur, „Li“ga amal qilgan inson o`zida umuminsoniy ahloqiy fazilatlar - samimiylik,

adolatguylik, odamiylik, rostguylik, xushmuomalalik, kamtarlik, e'tiqodda mustahkamlik kabilarni mujassamlashtiradi. Konfutsiychilikda kohin-dindor shaxsning mavjud emasligi, marosimlarning uy sharoitida, ya'ni ajdodlar timsoli „chju"ga uy sharoitida topinishning qulayligi uning din sifatida keng yoylashiga olib keladi.

Mil. avv. 1 ming yillik o'rtalariga kelib Xitoy faylasufi **Kuntszi** /mil.avv.551-479/ **konfutsiy** ta'limotiga asos solgan. Kun Tszi o'z falsafiy qarashlarini „Aforizmlar" asari orqali ilgari suradi.



Lao Tszi asos solgan **daosizm** mil.avv. VI aerda Xitoyda keng tarqalgan diniy-falsafiy oqimlardan biri bo'lgan. Mazkur, ta'limotiga ko'ra, „dao" olamning vujudga kelishidagi asosiy sabab bo'lib, uning mohiyatini tashkil etadi. „Dao"Lao Tszi/daotsizm oqimining asoschisi/ning fikriga ko'ra tabiiy „yo'l"bo'lib, tashqi dunyo, undagi barcha narsalar, o'simliklar, jonivorlar, shu jumladan odamlar ham ana shu yo'ldan borishi lozim. Daotsizm diniy-falsafiy ta'limotida kohinlar muhim rol o'ynaydi. Daotsizm Milodiy V asrga kelib rasmiy diniy ta'limotga aylanadi. Daotsizm ta'limotida dunyoning moddiy negizlari to'g'risida fikr yuritilib, narsalarning abadiy harakati, o'zgarib turishi, qara-qarshilikka egaligi, harakatlarning ichki qonuniyatlar asosida ro'y berishi to'g'risidagi tushunchalar ilgari suriladi. Shuning uchun mazkur diniy-falsafiy oqimda davlat va uni boshqarish to'g'risida fikr yuritilib, xalqni ma'naviy qashshoqlikda saqlash davlatni boshqarishning asosiy talablaridan biri ekanligi ta'kidlanadi. Bilimdon xalqni boshqarishning qiyinligi, bilimga tayanib mamlakatni idora qilish baxtsizlikka olib kelishi, bilimni ishlatmaslik mamlakatga baxt keltirishi mumkinligi g'oyasi ilgari suriladi.

Qadimgi Xitoy falsafasida milodning 27-97 yillarida yashab ijod etgan faylasuf Van Chunning „Tanqidiy mulohazalar" deb "nomlangan asari ham muhim o'rin egallaydi. Mazkur asarda bilish nazariyasiga alohida e'tibor berilib, bilish qobiliyati yuksalish, darajada rivojlangan insonga hos xususiyatligi, to'g'ma bilishning yo'qligi, ko'z ko'radigan, quloq eshitadigan, xid biladigan va boshqa sezgi a'zolari sezadigan narsalargina bilimning

manbai ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Van Chunning fikriga ko'ra tabiatdan o'zgarishlar ongli faoliyat natijasi emas, balki tabiiy qonuniyat, suyuqlanish va quyuqlanish natijasidir. Ongli faoliyat faqat insonga xosdir, ruh va organizm birdir. Organizm o'z faoliyatini to'xtatgach, ruh ham so'nadi.

Xitoy yozuvi 1 dan 28 gacha bo'lgan standart chiziqlardan iborat bo'lgan ieroglif yozuvdan iboratdir Bu yozuv uslubi milodiy I asrda ishlab chiqilgan. Xitoy yozuvida 5 mingdan iborat bo'lgan belgilar mavjud. Hozirgi Xitoy tilida 4-7 ming atrofidagi belgilarda qo'llaniladi.

Eng qadimgi xalq qo'shiqlari to'plami hisoblangan „Shi tszin" /„Qo'shiqlar kitobi"/taxminlarga ko'ra, mil.avv.XI-VII asrlar oralig'ida yaratilgan bo'lib, unda Xitoy xalqining urf-odatlari mehnat va marosim qo'shiqlari joy olgan. Ba'zi qo'shiqlarda afsonaviy ohanglar xalqning chinakam tarixiy voqealariga qo'shilib ketsa, ayrimlarida xalq tomonidan sevib ardoqlangan qahramonlarning jasorati madh etiladi, boshqalarida esa, podsho va amaldorlar ko'klarga ko'tarilib maqtaladi.

Qadimgi Xitoylar umumjaxon tabiiy fanlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar. Xitoyda matematika, geometriya rivojlangan. To'g'ri burchakli uchburchakning xususiyatlari ma'lum bo'lgan. Gepotenuzaning kvadrati katetlar yig'indisiga tengligi masalasi hal qilingan.

Astronomik kuzatishlar Shan /In/ davridayoq boshlangan bo'lib, Chjan Go zamoni /mil.avv. IV-III asrlar/ da nihoyatda aniqlikka ega bo'lgan 365 kunlik taqvim ishlab chiqilgan. Sayyoralar va yulduzlar harakatini to'g'ri kuzatish Quyosh va Oyning tutilishini oldindan aytib berish imkoniyatini bergan. Masalan, mil.avv.720 yilga oid ayrim yozma manbalarda Quyoshning tutilish davriyligi ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, mil.avv. 20 yillardagi yozma ma'lumotlarda Quyosh dog'lar borligi ta'kidlanadi.

Xitoy olimi Chjan Xen dunyoda birinchi bo'lib yer qimirlashini epitsentri /markazini/ ni ko'rsatuvchi **seysmografni** yaratgan bo'lsa Nanchun Sho yer meridiani gradusi uzunligini o'lchagan.

Dunyoda birinchi bo'lib Xitoyda porox ishlab chiqarishda selitradan foydalanishgan. X asrda birinchi mushakbozlik raketalar tayyorlangan.

Milodiy II asrda **qog'oz** ishlab chiqarila boshlangan bo'lsa, V-VI asrlardan boshlab kitob chop qilish yo'lga qo'yilgan. VII asrda „Di bao"/ "Poytaxt axboroti"/nomli gazeta chiqa boshlagan. Shuningdek,xitoylar dunyoda birinchi bo'lib, masofani ulchovchi spidometr vaer qutblarini ko'rsatuvchi komposni ixtiro qilganlar.

Qadimgi Xitoyliklarning eng muhim va nodir arxitektura yodgorligi **Buyuk Xitoy devoridir**. Buyuk Xitoy devori mil.avv. IV-III asrlarda shimolda yashagan Xun/turkiy/qabilalar taxdidi va hujumidan saqlanish maqsadida qurilgan. Imperator Tsin Shi Xuandi Xitoyning shimol va shimoli-sharqiy chegaralarida uzunligi 5000 kilometr bo'lgan Buyuk Xitoy devorini qurdiradi. Bu devorning qurilishida Min Tyan armiyasidan ajratilgan uch yuz ming askar harbiy asrlar, turli xil jinoyatchilar va qullardan iborat ikki million kishini ishlatadi. Devorning balandpigi 6,6 metr, ayrim joylarida 10 metrgacha, qalinligining pastki qismi 6,5 metr, ustki qismi zsa 5,5 metrni tashkil etadi. Devor o'n yil mobaynida

qurilgan. Buyuk Xitoy devori granit toshlar, xom g'isht va loydan qurilgan bo'lib, har 60-100 metr masofaga minoralar o'rnatilgan.

Shahar qurilishi ham aniq reja asosida amalga oshirila boshlanadi. Shaharlarning atrofi zovur va qalin devorlar bilan o'rab olinadi. Imperator saroyi esa, minora va darvozali qilib qurilgan mustahkam devorlar bilan o'rab olinadi va "Berk shahar" nomini oladi.

Tan/ 618-907 yillar/ va Sun/930-1279 yillar/ imperiyalari davrida minoralar qurilishi va tasviriy san'atda bir qator muvaffaqiyatlarga erishiladi. Masalan, Tan davrida umumiy balandligi 60 metrli Dayanta minorasi quriladi. Minoraning kvadrat shaklidagi tag qismining har bir tomoni 25 metrdan iborat. Minora yetti yarus/pog'ona/ga ajratilgan bo'lib eng yuqori qismi stupa bilan tugallangan. Budavrda shaharlarning maishiy hayotiga bag'ishlangan tasviriy san'at asarlari, shuningdek, „Gul va qushlar" janri yuksaladi. Parda, yelpig'ich kabi buyumlarga qush, o'simlik, hasharotlarning tasvirlarini tushirish avj oladi.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi Xitoy madaniyati boshqa Sharq xalqlari madaniyati ta'siri ostida rivojlanadi va qadimgi Mug'uliston, Manjuriya, Tibet, Hindi Xitoy mamlakatlari, Koreya va Yaponiya kabi mamlakatlari madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan hamda umumjaxon madaniyatining bir qismi sifatida shakllanib borgan. Ko'pgina aniq fanlar taraqqiyotiga turtki bergan.

